



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI
O‘ZBEK TILINI RIVOJLANTIRISH JAMG‘ARMASI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI DAVLAT
TILIDA ISH YURITISH ASOSLARINI O‘QITISH VA MALAKA OSHIRISH
MARKAZI**

“DAVLAT TILI TARAQQIYOTI: MUAMMO VA YECHIMLAR”

mavzusidagi V respublika an’anaviy ilmiy-amaliy anjumani

MATERIALLARI

**“BOOKMANY PRINT”
TOSHKENT – 2025**

UO‘K: 494.375

KBK: 81.633.1

D 26

Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar [Matn]: to‘plam / Sh.Sirojiddinov.
– Toshkent: Bookmany print, 2025. – 450 b.

Mazkur to‘plam “Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar” mavzusidagi V respublika an’anaviy ilmiy-amaliy anjumaniga tilshunos olimlar, vazirlik, idoralar, mahalliy ijro etuvchi organlarning davlat tili bo‘yicha maslahatchilari hamda tadqiqotchilar tomonidan yuborilgan materiallardan tashkil topgan. Undagi maqolalarda davlat tilining dolzarb muammolari, ularni hal qilish bo‘yicha takliflar, yechimlar berilgan. To‘plam tilshunoslar, professor-o‘qituvchilar, tadqiqotchilar, magistrlar va talabalar uchun mo‘ljallangan.

(Maqolalarning ilmiy saviyasiga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar).

Mas’ul muharrir:

Sh.Sirojiddinov, filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

I.Azimov, filologiya fanlari doktori, professor

A.Eminov, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

B.Jo‘rayeva, filologiya fanlari doktori, professor

M.Abdiyev, filologiya fanlari doktori, professor

F.Bobojonov, filologiya fanlari doktori, dotsent

M.Saparniyozova, filologiya fanlari doktori, dotsent

M.Hakimova, filologiya fanlari doktori, professor

M.Umirzoqova, filologiya fanlari doktori, dotsent

H.Yodgorov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

H.Suyunov, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

N.Quldashev, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazi Ilmiy-metodik kengashida nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-06-774-7

© “Bookmany print” nashriyoti, 2025.

FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING LINGVOMADANIY TAHLILI

(“Alpomish” dostoni asosida)

Ashurov DILMUROD*

Bayxanova SHOIRA *

Annotatsiya

Xalq baxshilari doston voqealarini nihoyatda qiziqarli, hayajonli qilib tasvirlash uchun til elementlaridan uning badiiy tili bezagi uchun maqsadga muvofiq foydalanganlar. Odatda, yuksak g'oya folklor asarlarida ham yuksak badiiylik orqali namoyon bo'ladi. Xalq og'zaki ijodining ulug'vorligi ham mana shu yuksak badiiylikdadir. Bu esa go'zal, shirali, jozibador badiiy til orqali ifodalanadi. O'zbek xalq dostonlarida uchraydigan frazeologik birliklar o'z semantik-stilistik tabiatiga ko'ra rang-barang bo'lib, ular o'ziga xos xususiyatlarga ega. Maqolada ularning ayrim leksik-semantik, tematik va uslubiy xususiyatlarini tavsiflashga hamda o'zbek xalq dostonlari tili uchun uslubiy xoslangan stilistik klishe, stilistik figuralar singari dostonlar badiiy tilida o'ziga xos vazifasini bajaruvchi frazeologik birliklar haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: xalq madaniyati, milliy madaniyat, milliy qarash, milliy mentalitet, tilning frazeologik fondi, fraziologiya, fraziologizm, lingvomadaniyat, lug'aviy birliklar, umumiste'moldagi frazeologizmlar, dialektal frazeologizmlar.

Linguocultural Analysis of Phraseological Units (Based on the epic “Alpomish”)

Abstract

Folk storytellers have skillfully employed linguistic elements to make the events of the epic fascinating and thrilling, thereby enriching its artistic language. As a rule, lofty ideas in folklore works are revealed through elevated artistry. The grandeur of oral folk creativity lies precisely in this high level of artistry, which is expressed through a beautiful, melodious, and captivating artistic language. The phraseological units found in Uzbek folk epics are diverse in their semantic-stylistic nature and possess distinctive features. This article seeks to describe some of their lexical-semantic, thematic, and stylistic characteristics, as well as to discuss phraseological units that, like stylistic clichés and figures, perform unique functions in the artistic language of Uzbek folk epics.

Keywords: folk culture, national culture, national worldview, national mentality, phraseological fund of the language, phraseology, phraseologism,

* Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent. University of Business and Science, dilmurodxoji@gmail.com

* Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o'qitish va malaka oshirish markazi Namangan viloyati hududiy bo'linmasi rahbari, shoirabayx67@gmail.com

linguoculture, lexical units, commonly used phraseologisms, dialectal phraseologisms.

“Iboralar hayotdagi voqea-hodisalarni kuzatish, jamiyatdagi maqbul va nomaqbul harakat-holatlarni baholash, turmush tajribalarini umumlashtirish asosida xalq chiqargan xulosalarning o‘ziga xos obrazli ifodalaridir” (Yo‘ldoshev, 2006, 53-bet). Frazologik ma’noning hajmi leksik ma’noning hajmiga nisbatan keng va murakkabligi bilan ajralib turadi. “So‘z ma’nosida bo‘lmagan, uchramagan komponentlar frazeologizmlar ma’nosida mavjud bo‘ladi” (Vafoyeva, 2009, 17-bet). Frazologizmlar tilni, uning mazmunini yanada boyituvchi ma’naviy xazina bo‘lib, ular lingvomadaniy obyekt sifatida millat madaniyatini o‘zida jamlovchi til birligi hisoblanadi.

“Frazologizmlar tuzilishiga ko‘ra so‘z birikmasi yoki gapga teng, semantik jihatdan bir butun, umumlashgan ma’no anglatadigan, nutq jarayonida yaratilmay, nutqqa tayyor holda kiritiladigan lug‘aviy birlik bo‘lib” (Hojiyev, 2002, 124-bet), voqelikni obrazli tasvirlash, uni kitobxon ko‘z o‘ngida aniq va to‘la gavdalantirishda o‘rni beqiyos. O‘zbek tilshunosligida frazeologizmlarni ilmiy-amaliy tadqiq qilish bo‘yicha izlanish olib borgan olimlardan biri A.Mamatovning fikricha, “iboralar tilning alohida birligi bo‘lib, tuzilishiga ko‘ra erkin bog‘lanma yoki gapga teng, to‘liq yoki qisman semantik qayta shakllangan obrazli, turg‘un so‘z birikmalarni o‘z ichiga oladi” (Mamatov, 2000, 47-bet).

Tilning frazeologik fondi xalq madaniyati va mentalitetining qimmatli ma’lumotlar manbai sanaladi. Frazologizmlarda muayyan xalqning miflari, udumlari, rivoyatlari, taomillari, urf-odatlar, ma’naviyati, axloq va h.k. haqidagi tasavvurlari mujassamlashgan bo‘ladi.

Ma’lumki, har qanday fraza tilimizda tayyor holda uchrashi bilan boshqa til birikmalaridan bir qator o‘ziga xos xususiyatlari bilan farq qiladi. Demak, so‘zlarga xos xususiyatlar frazalarga, shuningdek, barcha tipdagi frazeologik birliklar tabiatiga ham xosdir. Shuning uchun ham ular ham til, ham nutq hodisasi hisoblanadi.

Xalq og‘zaki ijodiyoti, dostonlar, turli-tuman afsona va rivoyatlar frazeologizmlarni shakllantiradi, ularga sayqal beradi, ularni xalq mulkiga aylantiradi. Binobarin, “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li”, “Rustamxon”, “Kuntug‘mish” kabi ulkan dostonlarda o‘zbek xalqining ko‘hna va hamisha navqiron tili o‘zining butun imkoniyatlari va go‘zalligi bilan “jilvalangan”.

“Alpomish” dostonidagi betakror, g‘oyatda nozik iboralarni ko‘rib lol qolasiz. Ana shunday iboralardan biri “gap yetaklamoq”dir. “*Yurishimiz malomat so‘z bo‘lmasin*”. Mazkur iboraning hozirgi tilimizdagi muqobili bo‘lmish “gap(ni) ko‘tarib yurmoq” iborasida gapning bevosita harakati yo‘q, u go‘yo oddiy bir narsa, uni faqat ko‘tarib yuradilar, xolos. “Gapni yetaklab yurmoq” iborasi shuning uchun

o'tkir va o'zg'irki, unda gapning o'zi bevosita yuradi, faol harakatga qodir, faqat uni chirkin maqsadlarga yuradilar, bechora gap yetovdagi molday iznini no'xtachiga tamoman tutqazib ketaveradi, no'xtachaning muddaosi esa gapning ma'noyu mantiq muvozanatini butunlay boshqa burchakka burib yuborishdan iborat. "Gap" va "yetaklamoq" so'zlaridan tarkib topgan bu ibora ana shunday ma'no nozikliklari, zakiy ishoralar bilan to'yinib, betakror bir ifoda sifatida she'rga, badiiy mazmunga ko'rk bergan" (Mahmudov, 1998, 30-bet).

Frazeologik birliklar ham lug'aviy birliklar singari barcha uchun barobar va tushunarli bo'lsa, ular umumxalq frazeologiyalari deyiladi. Ular ham uslubiy nuqtayi nazardan muayyan bir uslubiy ko'rinishga xoslanmagan bo'ladi. Bunday frazeologik birliklar o'zbek xalq dostonlari leksik tarkibining muayyan qismini tashkil etadi. Bu esa o'z navbatida so'zga chechan xalq baxshilarining o'z asarlarini shirali til bilan, ta'sirchan, obrazli ifodalashga yordam beradi.

O'zbek xalq shoiri Hamid Olimjon Fozil shoir kuylagan "Alpomish" dostonini nashrga tayyorlar ekan, undagi lug'aviy va frazeologik birliklarning rango-rang jilosiga hayratlanib; "Alpomish"da butun o'zbek tilining til-boyliqi aks etgan", - deya to'g'ri bashorat qilgani bejiz aytilmagan ekan. Kuzatishlarimiz natijalari shuni ko'rsatadiki, Fozil shoir, Islom shoir, Po'ltan shoirilar repertuaridan joy olgan dostonlaridagi frazeologizmlarga nisbatan Ergash Jumanbulbul o'g'li kuylagan dostonlar tilida uchraydigan frazeologizmlar tabiati, tarkibi va miqdori jihatidan bir-biridan tubdan farq qiladi. Buning obyektiv va subyektiv sabablaridan biri, bizningcha, shundaki, Ergash shoir madrasa ko'rgan, savodxon shoir edi. Shu bilan birga 5-6 dostonni o'z qo'li bilan o'zbek folkloristikasining jonkuyar asoschilaridan biri professor Xodi Zarifning iltimosiga ko'ra yozib topshirganidadir. Demak, u yoki bu doston lingvistik aspektda tekshirilganda, kim? qachon? va qay darajada? kuylaganligi hamda yozib olganligini hisobga olish o'rinlidir. Aks holda tadqiqot sayoz va bir tomonlama tavsiflangan bo'ladi.

"Alpomish", "Xoldorxon", "Kuntug'mish" kabi o'zbek xalq dostonlari tilidagi umumiste'moldagi frazeologizmlar semantik xususiyatlariga ko'ra inson hayotining turli jabhalariga taalluqlidir. Ular, asosan, inson psixologiyasi bilan bog'liq jarayonlarni jozibali va ta'sirchan ifodalash uchun xizmat qiladi. Frazeologizmlar dostonlardagi personajlarning jasorati, orzu-istaklari, maqsadlari, xursandchiligi, qayg'u, azob-uqubati kabi xususiyatlarni ifodalashda o'rinli qo'llangan. Quyidagi misollarga e'tibor beraylik:

Biylar ikkovi Shohimardon pirning ravzasiga qarab jo'namoqchi bo'lib, mindi bedov otti, uch kun tinmay yo'l tortdi. ("Alpomish", 6-bet) *Bor, unday bo'lsa, biz ham dunyoning bahridan o'tdik, - dep tappa tushib, ravzada turbatning ostida yotdi.* ("Alpomish", 6-bet) *Bu so'zni eshitib, biylarning juda vaqti xush bo'lib, "tilaganimiz qabul bo'ldi", deb ko'ngli to'lib, mindi bedov otti.* ("Alpomish", 7-bet) *Ikkovi aytdi:*

“Bizlar ham bir shohlik shavkatini qilsak, ovga chiqib ketsak, farzandlar yer yuziga tushsa...”, deb bu o‘ylarni o‘ylab biylar ovga jo‘nab ketdi. Hamma ham sendayin ko‘zini yoshlab, Zakot deb chiqardi bir ishni boshlab (“Alpomish”, 18-bet).

Misollardan ko‘rinadiki, dostonchilarimiz umumiste‘moldagi frazeologizmlardan oqilona, o‘rinli foydalanganlar, chunki ular har bir so‘z va ta‘birni yoki maqol, matalni yaxshi bilganlar. O‘zbek xalq dostonlarining badiiy tilida nainki umumxalq uchun tushunarli frazeologik birlik (FB)lar, balki oddiy, jonli so‘zlashuvga, faqat muayyan hududgagina xos bo‘lgan dialektal FBlar ham anchagina.

An‘anaviy o‘zbek xalq dostonlarida o‘zbek xalqining asriy turmush sharoitiga mos va xos FBlar o‘z ifodasini topgan. So‘zga chechan xalq baxshilari avloddan-avlodga meros qoldirilgan dostonlarni o‘z mehnati va shijoati ham shuuri bilan shoda marvariddek e‘zozlab bezatganlar, imkoniyatdan kelib chiqqan holda, tinglovchini o‘ziga maftun qilarli darajada yuksak mahorat bilan, o‘ziga xos salohiyat ila kuylay olganlar. Bu esa, o‘z navbatida, dostonlar tilining qayta-qayta ishlanishiga, silliqilanishiga yordam bergan, albatta. Kuzatishlarimiz natijasi shuni ko‘rsatadiki, har bir baxshichilik maktabi vakillarining doston kuylash usuli va an‘analari bo‘lgan. Fozil shoir – Bulung‘ur maktabining, Ergash shoir – Qo‘rg‘oncha maktabining, Bola baxshi – Xorazm, Sherna baxshi – Shahrisabz (Sherobod deyilgan manbalarda) maktabining yirik vakillari, taniqli namoyondalari bo‘ladi. Mubolag‘a qilib aytganda, bularning har birining o‘zi bir maktabdir.

O‘zbek xalq dostonlari badiiy tilidagi dialektal FBlarni to‘plash va tavsiflash katta ilmiy-amaliy qiymat kasb etgani holda, o‘zbek tilining leksik-frazeologik fondini boyitishga ham barakali ta’sir etadi. Chunki bu orqali o‘tmishdan va hozirgi har bir so‘z iborada o‘zbek xalqining tarixi, urf-odati, turmush tarzi o‘z ifodasini topgan. Biz tahlil obyekti tarzida o‘rgangan o‘zbek xalq dostonlari deyarli qipchoq shevasi vakillaridan yozib olingan. Lekin u yoki bu dostonning asrlar osha bir hududdan ikkinchisiga turli sabablar bilan o‘tishi natijasida ba’zi syujet, voqealar tasvirida qipchoq dialektiga xos bo‘lmagan so‘z va iboralar ham uchraydiki, ular, asosan, “Go‘ro‘g‘li” turkumi dostonlari tilida ham oz bo‘lsa-da, boshqa o‘zbek xalq dostonlarida ham uchraydi.

O‘zbek xalq dostonlari tilida uchraydigan dialektal FBlar semantik jihatdan rango-rang bo‘lib, asosan quyidagilardir:

1. Xalqona urf-odatlar bilan bog‘liq FB:

beshkirti qilmoq // beshikka kiritmoq/ solmoq, ya’ni beshikka o‘zganing bolasini kiritishdan maqsad, ularning kelajak turmushlari ham birga bo‘lsin, degan umidni ifodalashdir: *Ana shunda Hakimbekka Oybachindi atashtirib, beshkirti qip...* (“Alpomish”, 8-bet)

nika (h) qiymoq: (o'qimoq): mullaning va ikki vakilning ishtirokida nikoh marosimini o'tkazish: *Domla vakillardan so'rap, bular ham guvohligiga bir nima op, mulla xutbasini o'qib nika (h) qiyip, mullaning so'ragan so'zlarini vakillari ham qabul qip aytti* ("Alpomish", 160-bet)

boshi bo'sh (turmushga chiqmagan): *Qozonda qaynagan shirboz go'shmidi, Shul qizingdi asar boshi bo'shmidi? Kelin qip biror o'rama o'rayin* ("Alpomish", 37-bet)

2. Hayvonlarning turli xil xarakter va xatti-harakatlari bilan bog'liq FB:

tulkini ingatgan toziday ("chaqqon"). *Boybichaga shunda to'lg'oq vaqti joqin jetti, ne kampirlar kelib, boybichani aylanib, tulkini inglatgan toziday bo'p, angip, o'rta op turipti* ("Alpomish", 7-bet)

Seldalang otmoq (terlab ketmoq): *Bedovlar seldalang otti, Chuv-ha, dedi, qamchi tortti* ("Alpomish", 63-bet)

Bo'ynin uzatmoq (tinmay yo'l yurmoq): *Ostidagi arabi otlar, Kun-bakun bo'ynin uzatti* ("Alpomish", 63-bet)

Narmoda ("hezalak"): *Nar-moda deb menga so'zlading so'zlar, Nar-moda ma'nisin aytgin sen qizlar, Nar-moda deganda xapa bo'ppan, Nima ekanin bilmay turippan* ("Alpomish", 68-bet)

Toy-talash ("xotin" talash): *Har kim o'z elida bekma, to'rama, Nar modalar sendan kamroq bo'lama, Martting yori toy-talashda qolama?* ("Alpomish", 169-bet)

3. Inson hayotining turli tomonlariga aloqador bo'lgan FB:

Ta'til qi(l)moq (nonushta qilmoq): *Bu alplar, ... har kuniga to'qson shirbozning etini ta'til qi(l)g'on...* ("Alpomish", 31-bet)

Jo'n o'tirmoq (jimgina birovga halaqit bermay o'tirmoq): *O'n to'rtiga borip davron surmayma, Mastonmisan, jo'n o'tirsang, bo'yma?* ("Alpomish", 86-bet)

Birovni ko'nglini naza qilmoq (birovni xafa qilmoq): *Men bilaman Boysarining qizisan, Qimiz bermay ko'nglim naza qilasan* ("Alpomish", 47-bet)

Shabgir tortmoq (kechayu kunduz yo'l yurmoq): *Mung'ayip so'z aytar menday xizmatkor. Kecha-kunduz shabgir torting xizmatkor* ("Alpomish", 62-bet).

4. Turli tabiat hodisalari bilan bog'liq FB:

Kunning burniminan (quyosh chiqishi vaqtidagi payt): *Kunning burniminan Kag'aton tovinig to'qson darasidan to'qson alp bo'p kep turipti* ("Alpomish", 57-bet)

To'kirlini tuman tutdi ("atrofni chang-to'zon bosdi"): *G'ayrati-g'ayratga yetti, To'kirlini tuman tutdi* (Fozil Yo'ldosh o'g'li, 2015, 368-bet).

Frazeologik birliklarning asosida metafora va turg'un o'xshatishlarning mushtarak qorishmasi yotadi. Somatik xarakterdagi iboralar "jonli so'zlashuv nutqida katta miqdorni tashkil qiladi, kishilarning ruhiy, emotsional holatlari va xarakterlarini ifoda etishga xizmat qiladi", xalq dostonlari matnlarida ham keng uchrab

(Jumanazarova, 2015, 80-bet), makon, vaqtga doir madaniy kod vazifasini bajaradi. Frazelogizmlar tadqiq qilingan ishlarda somatik frazeologizmlar katta qismni tashkil etganligi aytib o'tiladi. Sh.Usmonova "Aynan somatik frazeologiyada har bir xalqning ko'p asrlik tajribasi, turmush tarzi, madaniyati, ma'naviyati, urf-odatlar va an'analar o'z aksini topgan bo'ladi" (Usmonova, 1998)", – deb yozadi. D.Ashurovning tadqiqot ishida ham bir nechta somatik frazeologizmlarning lingvomadaniy jihatlariga e'tibor berilganligini ko'rish mumkin. Xususan, ishda somatik xarakterdagi iboralar, jumladan, "bosh", "peshona", "ko'z", "quloq", "burun", "og'iz", "til", "bo'yin", "ko'ngil" va "bag'ir" uzvli frazemalar tahlil qilinadi (Ashurov, 2021, 18-bet).

"Masalan, *bo'yni yo'g'on* iborasi o'zidan ketib, o'zgalarni nazar-pisand qilmay qo'ygan mushtumzo'r, zo'ravon shaxslarga nisbatan qo'llaniladi" (Ashurov, 2019, 118-bet). O'z ma'nosida bo'yni yo'g'on odamning bo'yni uning harakatlarini cheklaganligi uchun bemalol harakatlana olmaydi. Bir tomonga qarash uchun butun tanani burish kerak bo'ladi. Xalq ana shu holatni hisobga olgan holatda kibr-u havoga berilib, o'zini o'zgalaridan baland tutadigan, mensimaydigan shaxslarga nisbatan shu iborani qo'llagan. Dostonda Boysaribiy kibr-u havoga berilib, akasi Boybo'ring birgina zakot so'raganligi uchun qavmi bilan o'z yurtidan bosh olib ketgan. Ularni Alpomish qalmoqlar zulmidan qutqarganda ham "*Qaytib borsam, ko'chib borib o'l, bachchag'ar, o'g'lim borib ham o'zingni olib keldi, ham qizingni olib keldi, – deb betimga ta'na qiladi, o'lsam ham bormayman*", – deydi. Shu munosabat bilan Boysariga nisbatan xalq bu iborani qo'llagan: *Hakimbekka borib qarindoshlari shunday bildirdi: – Boysaribiy bilan kelib, qaytib elga borolmay, sarson bo'lib qolganmiz, birga ketsak, – deb biyga ko'p gapirib ko'rganmiz, katta-kichik juda zo'rlab turganmiz. Ketmoqni hech ixtiyor qilmadi, qariganda ham buning bo'yni yo'g'onligi qolmadi* (Fozil Yo'ldosh o'g'li, 2015, 205-bet).

"*Bo'yin egmoq* (yoki solmoq) 1) boshni quyi solmoq; 2) ko'chma aybini bo'yniga olmoq, aybiga iqror bo'lib boshini quyi solmoq; 3) ta'zim qilmoq; 4) bo'ysunmoq, itoat qilmoq ma'nolarini ifodalaydi" (O'rinboyev, 1998, 9-bet): "*Davlatningdan kimxob-adras kiyding, yor-yor, // Haqdan kelgan ishlarga bo'yning eyding, yor-yor*" (Fozil Yo'ldosh o'g'li, 2015, 441-bet). Ushbu parchada qo'llanilgan *bo'yin egmoq* frazemasi o'zidan oldin kelgan *haqdan kelgan ishlarga* jumlasiga bilan birga qo'llanib, Alloh buyurgan ishlarga bo'ysunishni ifodalaydi.

Frazelogizmlarning muayyan guruhi xalqlarning urf-odatlar, an'analar va irimlari ta'sirida shakllanadi. Jumladan, o'zbek xalqida azaldan *quloqtishlar* odati mavjud. *Quloqtishlar*, ya'ni beshikketdi odati hozirgi kunda Surxondaryo viloyatining ayrim tuman va qishloqlarida saqlanib qolgan. Oilada qiz bola tug'ilib, chillasi chiqqandan keyin beshik to'yi o'tkaziladi. Qarindosh urug', do'st-og'aynilar yangi farzand bilan muborakbod etgani bu oilaga kelishadi. Shunda o'g'illik

birodarlardan biri niyat qilib, yetaklab borgan 5-6 yashar o'g'ilchasiga chaqaloq qizchani tilaydi, so'ratadi. Qizi bor oilaning buvasi, buvisi, ota-onasi va qarindosh urug'lari rozilik berishsa, "quloqtishlar" odati o'tkazilgan. Boyagi bolakay beshikda yotgan qizaloqning "qulog'ini tishlagan". "Qadim zamonlarda bunday "qudachilik" marosimi qabilalar o'rtasidagi urush-janjallarga chek qo'ygan. Tinch qo'shnichilikni saqlab qolgan" (Sattorov, 1993, 21-22-betlar). Mazkur odatni ifodalovchi, "qiz bolani go'dakligidayoq bo'lajak qaylig'i deb belgilab qo'ymoq" ma'nosida *qulog'ini tishlamoq* iborasi qo'llaniladi: *qizimni tilga olaverma, tug'ilgan kunida qulog'ini tishlagan kuyovi bor; o'g'ling kelib, kuyov bilan oramiz buzilay deb qoldi*.

O'zbek xalqining nikohlash marosimi, unashtirish odati bilan bog'liq iboralari tarkibida somatik so'zlar faol qatnashadi: *boshlarini qovushtirmoq, boshlarini biriktirmoq, boshlarini qo'shmoq* – "kelin-kuyov qilmoq"; *boshini ikkita qilmoq* – "uylantirmoq"; *bir yostiqa bosh qo'ymoq* – "turmush qurmoq"; *boshini bog'lamoq* – "kelin qilib olishga shartlashib kelmoq" va h.k.

Boshi bo'sh frazeologizmi bo'yi yetgan, turmushga chiqmagan qizlarga nisbatan qo'llaniladi. Sharq xalqlarida ayollar boshlariga ro'mol o'rashgan, turmushga chiqmagan qizlar esa bosh yalang, sochlarini bitta qilib o'rib olishgan. Ana shundan bu qizning oila qurgan yoki qurmaganligi aniqlangan. "Alpomish"da Barchinga kelgan sovchilar quyidagicha aytimlar bilan qizning qo'lini so'rab keladi: *Qozonda qaynagan shirvon go'shmidi, // Shul qizingning agar boshi bo'shmidi? // Boshi bo'shmi deyin, sendan so'rayin, // Kelin qilib biror ro'mol o'rayin* (Fozil Yo'ldosh o'g'li, 2015, 73-bet). Matndan anglashilmoqdaki, turkiy qabilalarda *boshi bo'sh* iborasi *turmushga chiqmagan* ma'nosida qo'llanilgan. Hozirgi kunda bu frazemaning *boshi ochiq* varianti ishlatiladi. Iboralarda qizlarning turmushga chiqmaganlik belgisi boshning yalangligi bilan ifodalanmoqda.

"Agar ikki tomon rozi bo'lsa qiz bizniki, egalik bo'ldi deb, qizning boshiga ro'mol o'rab ketishgan. "Chaqaloqlarni bir-biriga unashtirib qo'yish odati ham *ro'mol o'ramoq* deb nomlangan" (Fozil Yo'ldosh o'g'li, 2015, 488-bet). Parchada ham shunga ishora qilib "*Kelin qilib biror ro'mol o'rayin*" deyilmoqda. Ushbu gapda *ro'mol o'rayin* ifodasi "unashtirish" ma'nosiga to'g'ri keladi. Mazkur birliklarning ma'nolari tarkibida "harakat", "urf-odat", "marosim", "kelishish" singari semalar mavjud bo'lib, *ro'mol o'ramoq* ifodasi evfemik vosita sifatida o'ziga xos tarzda shakllanadi.

Boshi bo'sh, boshi ochiq, boshi bog'lanmagan kabilar *erga tegmagan* iborasi bilan sinonim hisoblanadi. *Erga tegmagan* ifodasida "qo'pollik" pragmatik semasi mavjud bo'lib, *boshi bo'sh* iborasining evfemik vosita sifatida qo'llanishida o'zbek millatiga xos andisha, uyatchanlik kabi xislatlar yaqqol ko'zga tashlanadi. "Alpomish" dostonida ham bu iboradan Barchinga kelayotgan sovchilar o'rinli foydalanishgan: "*O'zbeklarning yaxshi qizi bor bo'lsa, // Boshi bo'shmi, deyin, avval*

so‘rayin” (Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li, 2015, 79-bet). Kontekstdan anglash mumkinki, sovchilar avval sovchi bo‘lib borilayotgan qizning boshi bo‘shmi, – deya so‘ramoqdalar. Bu o‘rinda tinglovchi uchun iboraning ma‘nosi qiyinchiliksiz tushuniladi va bunga javoban boshi bo‘sh emas, ya‘ni Barchin Boysun-Qo‘ng‘irot elida bobosining o‘g‘li Alpomishga unashilgan deyilmoqda: “*Qozonda qaynagan shirvoz go‘sh t emas, // To‘rda o‘tirgan qizning boshi bo‘sh emas, // Qizim domot bobosining uliga, // Mol bergani Boysun-Qo‘ng‘irot elida*” (Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li, 2015, 74-bet).

“Xalq orasida *boshi bog‘liq* iborasi ham xuddi shunday ma‘noni ifodalaydi. Aytish mumkinki, unashtirilgan qiz boshiga ro‘mol bog‘lab yurishi majburiy bo‘lgan: *Boybichani ko‘p ag‘darib so‘radim, // Boshi bo‘sh ekanin toza sinadim, // Senga atash tirib ro‘mol o‘radim*” (Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li, 2015, 78-bet).

Ahmad Lutfiyning “Saodat asri qissalari” asarida johiliyat davrida arablarda ham shunday odat bo‘lganligi eslatiladi. “Hattoki eriga aza tutib turgan ayolning boshiga kutilmaganda ro‘mol tashlash orqali uni boshqa erkakka turmushga chiqishini majburiy holga aylantirishgan” (Ahmad Lutfiy, 2021, 114-bet). Bundan xulosa qilinsa, *boshi bog‘liq, boshi bo‘sh* iboralarining tarixi islomdan avvalgi davrlarga borib taqaladi, binobarin, dostonning ham yoshini belgilaydi.

Yuqoridagi frazeologik birliklarda *bosh* leksemasi umumiy nuqta bo‘lib kelmoqda, demak, xalq oila qurmoqlikni ikki boshni (yigit va qiz) birlashtirish tarzida tushunishgan. *Boshini ikkita qilmoq* iborasi vositasida “*juftlashtirmoq*”, “*oila qurmoq*” semasi namoyon bo‘lmoqda.

Xullas, frazeologik birliklar til boyligidir. Frazemalarni lingvokulturologik jihatdan tahlil qilish, xalq tili bilan qiyosan o‘rganish orqali til egalarining milliy mentaliteti, madaniyati, milliy qarashlari, tasavvurlari, hayotga munosabati kabi masalalarni tadqiq qilish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

Йўлдошев М. (2006). *Бадиий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлил асослари*. Фан.

Вафоева М. (2009). *Ўзбек тилида фразеологик синонимлар ва уларнинг структурал-семантик таҳлили*.

Ҳожиёв А. (2002). *Тилишунослик терминларининг изоҳли лугати*. Фан.

Маматов А. (2000). *Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиши масалалари*.

Маҳмудов Н. (1998). *Тил*. Ёзувчи.

Жуманазарова Г. (2015). *Халқ дostonлари тилидаги иборалар семантикаси. Ўзбек тили ва адабиёти*.

Жуманазарова Г. (2017). *Фозил Йўлдош ўғли дostonлари тилининг лингвопоэтикаси (лексик-семантик, лингвостилистик ва лингвостатистик таҳлил)*.

Исаев А. (1976). *Ўзбек тилида соматик фразеологизмлар*.

Усмонова Ш. (1998). *Ўзбек ва турк тилларида соматик фразеологизмлар*.

Рашидова У. (2018). *Ўзбек тилидаги соматик ибораларнинг семантик-прагматик таҳлили (кўз, қўл ва юрак компонентли иборалар мисолида).*

Маматов А., Болтаева Б. (2018). *Фразеологик бирликларнинг лингвомаданий ва семантик-прагматик тадқиқи.*

Туропова Н. (2018). Соматик фразеологизмларнинг лингвомаданий хусусиятлари (ўзбек ва япон тиллари мисолида). *Ўзбек тили ва адабиёти*. 117.

Усмонова Ш. (1998). *Ўзбек ва турк тилларида соматик фразеологизмлар.*

Ашуров Д. (2021). *«Алпомиш» достонининг лингвокультурологик хусусиятлари.*

Ашуров Д. (2019). «Алпомиш» достонидаги айрим фразеологизмларнинг лингвомаданий таҳлили. *Ўзбек тили ва адабиёти*.

Ўринбоев Б., Бозорбоев К. (1998). *«Алпомиш» достони фразеологизмларининг таъбири.* СамДУ.

Сатторов М. (1993). *Ўзбек удумлари.*